

ON THE IMPACT OF ECOLOGICAL DRYING OF THE ARAL SEA ON AGRICULTURE IN KHOREZM REGION

Rajabov Otabek Akbar o'g'li
Student of Urgench State University

Egamberganova Dilafruz Baxodirovna
Student of Urgench State University

Abdullayeva Maftuna Bahodir qizi
Student of Urgench State University

ANNOTATION

In this article, there are various reasons for the development of agriculture in Khorezm region, some of which have a positive impact on the development of agriculture in the region, while others have a negative impact on the development of agriculture. This article provides information on the impact of the ecological drying up of the Aral Sea, which has both positive and negative effects on agricultural development.

Keywords: Aral Sea, China, agriculture, export, import, domestic market, foreign market, investment, investor, mammal, sheep, land resources, raw material reserves, labor resources.


Kirish: Xorazm viloyati iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi eng asosiy o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishida ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarning ta'siri qishloq xo'jaligining rivojlanishida ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, suv resurslari juda ko'p bo'lsa bir tarafdin ekinlarni sug'orish uchun foydali bo'lsa, boshqa tarafdin suv resurslarining juda ko'pligi esa muammolarni keltirib chiqaradi. Yer maydonlarini suv bosishi buning natijasida ekinlar nobud bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada aynan Xorazm viloyati qishloq xo'jaligining rivojlanishida ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhim bir omil bo'lgan Orol dengizining ekologik qurishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Ushbu rasmda orol dengizining qurishini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin. Eng boshida oldingi ko'rinishi va eng oxirida hozirgi kundagi ko'rinishi[3]. *1-rasm.*

Asosiy qism: **Orol dengizi** — O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston), shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbiga cho'zilgan uzunligi 428 km, eng keng joyi 235 km bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuqurligi 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori plitsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan[1].

Orol dengizini birinchi marta A. I. Butakov 1848—1849 yillarda tadqiq etgan va haritaga tushirgan. Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'liqligidan, bu ikki daryo suvi sug'orishga qancha ko'p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan-yilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi va bugunga kelib deyarli suvsiz qoldi desak bo'ladi. Faqatgina g'arbiy qismida va Orol dengizining Qozog'iston hududidagi qismigina xozirgacha saqlanib qolgan. Orol dengizining qurishi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, orol bo'yi hududlarda turli xil kasalliklar ko'paymoqda, undan tashqari orolning qurigan tubidan ko'tarilgan tuz shamol ta'sirida yaqin atrofdagi hududlarga katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazmoqda. Ushbu maqolada esa orol dengizining ekologik qurishining Xorazm viloyati qishloq xo'jaligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligining rivojlanishida eng asosiy manbasi bu Amudaryo daryosi hisoblanadi. Amudaryo daryosi bo'lmaganida Xorazm viloyati ham bo'lmas edi[4].

Viloyatda qishloq xo'jaligining rivojlanishida viloyatning unumdor yerlaridan unumli foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Bunday yerlardan foydalanish uchun eng avvalo mehnat resurslari va suv resurslari eng asosiy sabab hisoblanadi. Viloyatda ishchi kuchi yetarlicha bor, viloyatning suv resurslarining manbai hisoblanadigan Amudaryo ham, viloyatda qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan Amudaryodan katta miqdorda suvlar sarfana boshlandi. Buning natijasida orol dengiziga quyiladigan suv miqdori yildan-yilga kamaya bordi va bu bir tomondan orolning qurishiga boshqa tomondan esa Xorazm viloyati qishloq xo'jaligining ekstensiv yo'l bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi.



1-Jadval

N ^o	Nomi	1958-y.	1965-y.	1975-y.	1980-y.	1985-y.	1990-y.
1.	Amudaryodan olinadigan suv miqdori.	10,8	18,9	30,6	37,4	38,6	40,9
2.	Orol dengiziga quyiladigan suv miqdori mlrd m ³	52,3	25,4	10,8	7,4	2,4	1,6

Ushbu jadvalda Amudaryo daryosidan olinadigan suv hajmining yillar davomida o'zgarishi va Orol dengiziga yillar davomida quyilgan suv miqdori haqida ma'lumotlar berilgan[2].

2-Jadval.

N ^o	Nomi	1958-y.	1965-y.	1975-y.	1980-y.	1985-y.	1990-y.
1.	Xorazm viloyati	142	151	168	179	200	233

Ushbu jadvalda Xorazm viloyatidagi qishloq xo'jaligida Amudaryo suvidan foydalaniladigan yer maydonlarining yillar kesimida ortib borishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. (ming gektar hisobida)[2].

Yuqoridagi jadvallar asosida shuni aytish mumkinki annotasiyada aytib o'tilganidek orol dengizining qurishi tufayli butun Amudaryo havzasida joylashgan hududlar asosan Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida qishloq xo'jaligi ancha yaxshilanib bordi. Bu orol dengizining qurishining yaxshi tomonlaridan biri hisoblanadi yana boshqa yaxshi tomonlari uning qurigan tubida hozirgi kunda juda ko'plab maqsadlarda foydalanib katta daromad keltirmoqda. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda uning qurigan tubida 2 ta GQIZ(Gazni Qayta Ishlash Zavodi) faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday korxonalarining aynan shu hududda joylashganligi sababli Orol bo'yi hududlaridan boshqa hududlarga zaharli moddalarning doimiy ravishda borishini oldini oladi ya'ni orolning qurigan tubi dengiz sathidan pastda joylashgan bu ham shamollar harakatiga ta'sir ko'rsatadi.

Endi esa Orol dengizining ekologik qurishining Xorazm viloyati qishloq xo'jaligiga va butun Quyi Amudaryo okrugiga salbiy ta'siri haqida gaplashsak. Orol dengizining ekologik qurishi natijasida uning qurigan tubida katta katta maydonlar ochilib u joylar tuz bilan to'lgan. Shimoldan, shimoli-g'arbdan va g'arbdan esadigan shamollar sababli uning qurigan tubidagi tuz havoda uchib butun Quyi Amudaryo okrugiga juda katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazmoqda. Bu joylarda har hil kasalliklar ko'paymoqda. Shuningdek tuz bo'ronlari tufayli xo'jaliklarda katta zarar yetkazmoqda. Masalan, 2018-yil may oyida Orol dengizining qurigan tubidan ko'tarilgan tuz shamol ta'sirida butun Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyatiga shuningdek Buxoro va Navoiy viloyatlarigacha ham yetib borgan va juda ko'p moddiy zarar yetkazgan.

Shu yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orol dengizining ekologik qurishining Xorazm viloyati qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri haqida olib borilgan ishlar natijasi hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki biron bir narsa o'sishi rivojlanishi shuningdek uning yo'q bo'lib ketishi albatta birorta sabab natijasida bo'ladi. Maqolada mazmunida keltirilgan orol dengizining ekologik qurishining Xorazm viloyati qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ta'siri qilishida ham aynan bir sabab bo'ladi. Xulosa qismiga shunday desak mubolag'a bo'lmaydi, orol dengizining qurishini foydasidan ko'ra uning zarar tomoni juda ko'p hisoblanadi shunday ekan viloyatning xo'jaligini rivojlantirish uchun yangidan yangi usullardan foydalanish va chet el tajribasini o'rganish hamda viloyatga chet ellik investorlarning investitsiyasini kiritish va viloyatda mavjud bo'lgan xomashyo va mehnat resurslaridan foydalangan holda rivojlantirish usullarini qo'llash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi internet sayti.
2. Xorazm viloyati agrosanoat kompleksi tarmoqlari joylashishi va rivojlanishi. Qurbaniyozov R. O'rozmetov R. Urganch-2002.
3. <https://daryo.uz/2013/08/27/qurib-borayotgan-orol-dengizi> internet sayti.
4. Xorazm viloyatida agrar sohaning eksport salohiyatini kengaytirishda ayrim noan'anaviy tarmoqlardan foydalanish istiqbollari va rivoji. Ilmiy maqolasi. Sobirov.J.X. Komiljanova.E.U. Sharifboyeva.H.I.
5. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.